


JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**JIZZAX VILOYATIDA
O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL
TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY
STATISTIK KO'RSATKICHLARI
(2022/2023- o'quv yili boshiga)**





Jizzax viloyatida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, Jizzax viloyatida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlarini va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'limning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.





Jizzax viloyatida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.





Akademik litseylar soni va ularning shahar va tumanlar
kesimida taqsimlanishi
(o'quv yili boshiga, birlik)



Jizzax sh | 3

2022/2023- o'quv yili


2022/2023- o'quv yilida 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan akademik litseylar soni 3 tadan o'zgarmagan.

2022/2023- o'quv yili boshiga ularning eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahrida (3 ta) qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarda mavjud emasligi kuzatilgan.

Akademik litseylar soni

2018/2019- o'quv yiliga nisbatan o'zgarishi

Akademik litseylarda tahsil olayotgan
o'quvchilarning soni
(o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni 2018/2019-o'quv yili boshiga nisbatan 1,7 ming kishiga, ya'ni 39,3 % ga kamaygan.






Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)

Jizzax sh.	1,7	-39,3
------------	-----	-------

2022/2023- o'quv yili boshida akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning barchasi Jizzax shahrida (1,7 ming kishi) pasayish ko'rsatkichi – Jizzax sh. (-39,3 %) kuzatilgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)




2022/2023- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy sonida o'g'il bolalar ulushi **61,3 %** ni (**1,7** ming kishi), qizlar ulushi **38,7 %** ni (**0,6** ming kishi) tashkil etdi.





Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)


2022/2023- o'quv yili



Jizzax sh 155

2018-2022- yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rnida, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2018/2019- o'quv yiliga nisbatan 155 kishiga, ya'ni 10,4 % ga kamaygan. Akademik litsey o'qituvchilarining barchasi Jizzax shahrida (155 kishi) qayd etilgan.

Akademik litseylarning bitiruvchilari (ming kishi)



Jizzax sh 1,0


2022- yilda akademik litsey bitiruvchilari soni 2019- yilga nisbatan 1,0 ming kishiga, ya'ni 11,1 % ga ko'paygan.





Jizzax viloyatida professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari soni

(o'quv yili boshiga, birlik)




Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar sonining tahlili texnikumlar kamayganligini kuzatish mumkin.

Masalan, 2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablari soni 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 1 taga, kollejlar 2 taga hamda, texnikumlar soni 1 taga kamaygan.






Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)



2020/2021-o'quv yilidan 2022/2023-o'quv yiligacha bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni kasb-hunar maktablarida 1,9 barobarga, texnikumlarda 1,5 barobarga, kollejlarda esa 33,3 % ga oshgan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti (2022/2023- o'quv yili boshiga, ming kishi)



2022/2023- o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar sonida qizlarning ulushi (53,3 %) o'g'il bolalarning ulushiga (46,7 %) nisbatan ko'p bo'lgan.


Agarda professional ta'limning har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (70,7 %) ulushi qizlar (29,3 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar o'g'il

bolalarga qaraganda ko'proq. Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 99,7 % ni, o'g'il bolalar ulushi 0,3 % ni, texnikumlarda esa qizlar 75,8 % ni, o'g'il bolalar 24,2 % ni tashkil qilgan.






**Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim
muassasalarining o'qituvchilari tarkibi**
(o'quv yili boshiga, kishi)



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida so'nggi uch yil davomida o'qituvchilar soni kamayganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2022/2023- o'quv yili boshida ularning soni 2021/2022- o'quv yiliga nisbatan 0,4 % ga kamaygan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari
(2022- yil uchun, ming kishi)

Viloyat bo'yicha



	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Jizzax sh. tumanlar	0,4	-	0,2
Arnasoy	0,1	-	-
Baxmal	0,4	0,6	0,1
G'allaorol	0,4	0,5	0,2
Sharof Rashidov	0,5	-	0,5
Do'stlik	-	-	-
Zomin	0,3	0,3	0,05
Zarbdor	0,2	-	-
Zafarobod	-	-	-
Mirzacho'l	0,2	-	0,1
Paxtakor	0,2	0,3	0,2
Forish	0,2	-	-
Yangiobod	0,1	-	-





Kasb-hunar maktablari soni, birlikda

Ma'lumot uchun: *Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.*


16

15

2021- yil → 2022- yil

Kasb-hunar maktablarini shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda*

(2022/2023- o'quv yili boshiga)



2022/2023- o'quv yili boshida Jizzax viloyatuda **15** ta kasb-hunar maktablari mavjud .


**shu jumladan madaniyat va san'at maktablaring qo'shgan holda*






Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar kesimida
2022/2023- o'quv yili boshiga



2022/2023- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **6,8** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Jizzax viloyatidagi barcha o'quvchilar Jizzax shahrida – **6,8** ming nafar o'quvchi kuzatilgan.




Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **70,7** foizini qizlar, **29,3** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.








Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)





Kollejlar soni, birlikda *(o'quv yili boshiga)*

Shahar va tumanlar kesimida






2022/2023- o'quv yili boshida
Jizzax viloyatida **7** ta kollej mavjud.





Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar kesimida





2022/2023- o'quv yili boshida Jizzax viloyatida **7** ta kollejda **2,8** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Baxmal timanida (**1,4** ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Jizzax shahrida (**0,03** ming kishi) qayd etilgan.





Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar kesimida





2022/2023- o'quv yili boshida kollejlarda **146** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan (2021- yilda – **140** nafar) **0,4** foizga ko'paygan.






Texnikumlarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)




Jizzax viloyatida 2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlar soni **13** tani tashkil etdi, 2021/2022- o'quv yili boshiga nisbatan texnikumlar soni 1 taga kamaygan.





Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi *(o'quv yili boshiga)*

Shahar va tumanlar kesimida





2022/2023- o'quv yili boshida Jizzax viloyatidagi texnikumlarda **7,9** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (**2,7 ming**), eng past ko'rsatkich Baxmal tumanida (**0,3** ming) qayd etilgan.





Texnikumlarda o'qituvchilar soni, kishi (o'quv yili boshida)

Shahar va tumanlar bo'yicha



2022/2023- o'quv yili boshida texnikumlarda **287** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (**333** nafar) nisbatan **0,8** barobar kamaygan. Shahar va tumanlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Jizzax shahrida – **99** nafar, eng kami – Baxmal tumanida – **11** nafar qayd etildi.





Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim tashkilotlari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.





Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



**Jizzax viloyati Statistika
boshqarmasi**



e-mail:info@jizzaxstat.uz



**Manzil: 100170, Jizzax sh.,
To'qimachilar ko'chasi, 7-uy**



www.jizzaxstat.uz



Tel.: +99871 221-51-36



**facebook.com/jizzaxstat
com**

